



**MAXSUS TEXNIKUM O'QUVCHILARIDA KASBIY
KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA AMALIY
MASHG'ULOTLARNING O'RNI**

Tolipova Marxabatxon Baxtiyorovna

*Farg'ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus
texnikum, ta'lim ustasi*

Annotatsiya. Maqolada maxsus texnikum, jumladan imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning o'rni va ahamiyati ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Muallif "kompetensiya" va "kasbiy kompetensiya" tushunchalarining mohiyatini ochib bergan holda, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari hamda ishlab chiqarish amaliyotining bilim, ko'nikma va malakalarni yaxlit faoliyatga aylantirishdagi roli ko'rsatib berilgan. Shuningdek, inklyuziv ta'lim sharoitida amaliy mashg'ulotlarni individuallashtirish, mehnatni reabilitatsiya bilan uyg'unlashtirish va o'quvchilarni mehnat bozoriga moslashtirishning metodik yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, amaliy mashg'ulot, kasb-hunar ta'limi, maxsus texnikum, imkoniyati cheklangan shaxslar, inklyuziv ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti, ko'nikma va malaka, mehnat reabilitatsiyasi, dual ta'lim.

Аннотация. В статье с научно-педагогической точки зрения анализируется роль и значение практической подготовки в развитии профессиональных компетенций студентов специализированных технических колледжей, включая специализированные учреждения для лиц с инвалидностью. Уточнив сущность понятий «компетенция» и «профессиональная компетентность», автор показывает роль практических занятий, лабораторных работ и производственной практики в преобразовании



знаний, навыков и умений в целостную деятельность. Также освещаются методологические подходы к индивидуализации практической подготовки в рамках инклюзивного образования, сочетанию труда и реабилитации, а также адаптации студентов к рынку труда.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, практическая подготовка, профессиональное образование, специализированный технический колледж, лица с инвалидностью, инклюзивное образование, производственная практика, навыки и умения, трудовая реабилитация, дуальное образование.

Abstract. The article analyses, from a scientific and pedagogical perspective, the role and importance of practical training in developing the professional competencies of students at special technical colleges, including specialized institutions for persons with disabilities. Having clarified the essence of the concepts of “competence” and “professional competence”, the author shows the role of practical lessons, laboratory work and industrial practice in transforming knowledge, skills and abilities into integrated activity. The methodological approaches to individualizing practical training in inclusive education, combining labour with rehabilitation, and adapting students to the labour market are also highlighted.

Key words: professional competence, practical training, vocational education, special technical college, persons with disabilities, inclusive education, industrial practice, skills and abilities, labour rehabilitation, dual education.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — bitiruvchilarni nafaqat ma’lum bir hajmdagi bilimlar bilan, balki shu bilimlarni real ishlab chiqarish sharoitida qo‘llay oladigan amaliy qobiliyatlar bilan qurollantirishdir. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-637-son) professional ta’limni



mustaqil bosqich sifatida belgilab, nazariy bilim ta'lim tashkilotida, amaliy tayyorgarlik esa ish o'rnida olib boriladigan dual ta'lim shaklini joriy etdi. Bu hujjat ta'lim natijasini o'zlashtirilgan bilimlar miqdori bilan emas, balki shakllangan kompetensiyalar bilan baholashni talab qiladi.

Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun bu masala alohida ahamiyat kasb etadi. 2020-yil 15-oktyabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-641-son) ushbu toifadagi shaxslarning maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda inklyuziv ta'lim olish, kasbga tayyorlanish va malakasini oshirish huquqini kafolatladi. Maxsus texnikumlar ana shu kafolatni amalga oshiruvchi muhim bo'g'in bo'lib, ularda o'quvchining kelajakdagi mustaqil hayoti va ish bilan ta'minlanishi bevosita egallangan kasbiy kompetensiyalar darajasiga bog'liq.

Mazkur maqolaning maqsadi — maxsus texnikum o'quvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy mashg'ulotlarning o'rnini nazariy jihatdan asoslash va ularni samarali tashkil etishning metodik yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Kasbiy kompetensiya tushunchasining mohiyati

"Kompetensiya" atamasi pedagogikaga psixologiya va mehnat sotsiologiyasidan kirib kelgan. D. Maklelland 1973-yilda e'lon qilgan tadqiqotida kasbiy muvaffaqiyatni an'anaviy intellekt testlari emas, balki faoliyatda namoyon bo'ladigan kompetensiyalar aniqroq bashorat qilishini ko'rsatib bergan edi. Keyinchalik J. Raven kompetensiyani shaxsning muayyan vaziyatda samarali harakat qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qadriyat va motivlar majmuasi sifatida ta'rifladi. Yevropa hamjamiyati doirasida V. Hutmaxer tomonidan asoslangan tayanch kompetensiyalar konsepsiyasi esa ta'lim natijalarini xalqaro miqyosda qiyoslash imkonini berdi.



Pedagogik adabiyotda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari farqlanadi: kompetensiya — oldindan belgilangan talab, ya’ni shaxs egallashi lozim bo’lgan ijtimoiy-kasbiy norma; kompetentlik esa shu normaning konkret shaxsda real namoyon bo’lishi, uning egallangan tajribaga asoslangan sifatidir. Demak, kasbiy kompetensiya — bu o’quvchining muayyan kasbiy vazifalarni mustaqil, sifatli va mas’uliyat bilan bajarishga tayyorligini ta’minlovchi bilim, amaliy ko’nikma, malaka hamda shaxsiy fazilatlarning yaxlit tizimidir.

Kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlarida kompetensiyalar odatda ikki guruhga ajratiladi: umumiy (kasblararo) kompetensiyalar — muloqot, hamkorlikda ishlash, axborot bilan ishlash, mas’uliyat va o’z faoliyatini rejalashtirish; hamda kasbiy (mutaxassislikka oid) kompetensiyalar — konkret texnologik jarayonlarni bajarish, asbob-uskunalardan foydalanish, mahsulot sifatini nazorat qilish bilan bog’liq qobiliyatlar. Ikkala guruh ham, eng avvalo, bevosita amaliy faoliyat orqali shakllanadi.

Amaliy mashg’ulotlar kasbiy kompetensiyani shakllantirish vositasi sifatida

Kasb-hunar ta’limida o’quv jarayoni o’zaro bog’liq nazariy va amaliy qismlardan iborat bo’lib, malakali mutaxassis tayyorlash nazariy mashg’ulotlar, laboratoriya-amaliy mashg’ulotlar va ishlab chiqarish amaliyotining uzviy birligida ta’minlanadi. Nazariy bilim faoliyat uchun zamin yaratadi, biroq u amaliy harakatga aylanmaguncha kompetensiyaga aylanmaydi. Aynan amaliy mashg’ulot bilimni ko’nikmaga, ko’nikmani esa takroriy mashq orqali barqaror malakaga aylantiruvchi bo’g’in hisoblanadi.

Amaliy mashg’ulotlarning kompetensiyani rivojlantirishdagi roli quyidagi jihatlarda namoyon bo’ladi: birinchidan, ular bilimni real obyekt va vaziyatga bog’lab, uning amaliy ma’nosini ochib beradi; ikkinchidan, o’quvchi xatosini bevosita ko’rib, o’z faoliyatini tahlil qilishni — refleksiyaning o’rganadi; uchinchidan, mehnat intizomi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, jamoada ishlash kabi kasbiy-



shaxsiy sifatlar tarbiyalanadi; to'rtinchidan, o'quvchida o'z mehnati natijasini ko'rishdan kelib chiqadigan ichki motivatsiya va kasbga qiziqish kuchayadi.

Zamonaviy metodikada amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish uchun interfaol metodlar, modulli o'qitish, loyiha asosidagi ta'lim hamda raqamli simulyatorlar va virtual amaliyot shakllaridan keng foydalanilmoqda. Loyiha asosidagi yondashuvda o'quvchi yakuniy mahsulot (buyum, xizmat, hujjat) yaratish jarayonida bir necha kompetensiyani bir vaqtning o'zida ishga soladi, bu esa ta'lim natijalarini hayotiy vaziyatlarga maksimal yaqinlashtiradi.

Maxsus texnikum va inklyuziv sharoitning o'ziga xosligi

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda amaliy mashg'ulotlar ham ta'limiy, ham rehabilitatsion-ijtimoiy vazifani bajaradi. Bunday muassasalarda mehnat faoliyati ko'pincha tuzatish-korreksiya jarayoni bilan birga olib boriladi: nozik motorikani rivojlantirish, e'tibor va xotirani mustahkamlash, harakatlarni muvofiqlashtirish amaliy topshiriqlar zaminida amalga oshiriladi. Shu bois bu yerda amaliy mashg'ulotning maqsadi faqat kasbiy ko'nikma emas, balki o'quvchining mustaqil hayotga va mehnat bozoriga moslashuvidir.

Inklyuziv sharoitda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq: ta'limni individuallashtirish — har bir o'quvchining sog'lig'i holati va imkoniyatidan kelib chiqib topshiriq murakkabligi va bajarish sur'atini moslashtirish; bosqichlilik — murakkab operatsiyani sodda elementlarga ajratib, ketma-ket o'rgatish; ko'rsatmalilik va takror — namuna ko'rsatish, birgalikda bajarish, so'ng mustaqil mashq qildirish; muqobil o'quv materiallari va moslashtirilgan ish o'rni hamda asboblardan foydalanish. Davlat siyosatida ham imkoniyati cheklangan shaxslarni kasbga tayyorlash uchun muqobil shakldagi o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan.



Ta'lim ustasi bunday jarayonda nafaqat texnologik bilim beruvchi, balki o'quvchining ishonchini mustahkamlovchi, kichik muvaffaqiyatni ham qadrlaydigan, ijobiy hissiy muhit yaratuvchi murabbiy vazifasini bajaradi. Aynan shunday yondashuv o'quvchida "men ham eplay olaman" degan ishonchni shakllantiradi, bu esa kasbiy kompetensiyaning psixologik asosi hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirish yo'llari

Tadqiqotlar va amaliy tajriba quyidagi yo'nalishlar amaliy mashg'ulotlarning natijadorligini oshirishini ko'rsatadi: o'quv mashg'ulotlarini real korxonalaridagi ishlab chiqarish amaliyoti bilan uzviy bog'lash hamda ish beruvchilar bilan hamkorlik o'rnatish; har bir mavzu bo'yicha aniq, kuzatiladigan va o'lchanadigan o'quv natijalarini (kompetensiyalarni) belgilash; baholashda o'quvchining tayyor mahsuloti va bajargan amaliy harakatlarini portfolio asosida kuzatib borish; nazariy va amaliy mazmuni integratsiyalash, ya'ni har bir nazariy tushunchani darhol amaliy topshiriq bilan mustahkamlash.

Shuningdek, ta'lim ustalarining uzluksiz malakasini oshirish — yangi texnika va texnologiyalardan, zamonaviy pedagogik metodlardan xabardor bo'lishi amaliy mashg'ulotlar sifatining hal qiluvchi omilidir. Mutaxassislar ta'kidlaganidek, kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligi bevosita o'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar darajasiga ko'chadi.

Xulosa

O'tkazilgan tahlil amaliy mashg'ulotlar maxsus texnikum o'quvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning yetakchi vositasi ekanligini ko'rsatadi. Nazariy bilim faqat amaliy faoliyatda sinab ko'rilgandagina barqaror ko'nikma va malakaga, oxir-oqibat esa kompetensiyaga aylanadi. Shu sababli o'quv jarayonida nazariy va amaliy qismlarni uzviy bog'lash, mashg'ulotlarni real ishlab chiqarish vaziyatlariga yaqinlashtirish strategik ahamiyatga ega.



Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda amaliy mashg'ulotlar qo'shimcha — reabilitatsion va ijtimoiy moslashtiruvchi — funksiyani bajaradi. Ularni individuallashtirish, bosqichlilik, ko'rsatmalilik tamoyillari asosida hamda moslashtirilgan ish o'rni va muqobil materiallardan foydalangan holda tashkil etish o'quvchilarning mustaqil hayotga va mehnat bozoriga moslashuvini ta'minlaydi.

Demak, amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ish beruvchilar bilan hamkorlik va o'qituvchining yuqori kasbiy mahorati bilan uyg'unlikda tashkil etish maxsus texnikum bitiruvchilarini raqobatbardosh, ijtimoiy faol va o'z kasbiga sodiq mutaxassis sifatida shakllantirishning ishonchli zaminidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020-yil 15-oktyabr, O'RQ-641-son. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent, 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Toshkent, 2020-yil 13-oktyabr, PQ-4860-son.
5. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. 280 b.



6. Qodirova F.U., Pulatova D.A. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent, 2021. – 196 b.
7. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. – 160 b.
8. Olimov Q.T., Yo'ldoshev J.G. Kasb ta'limi metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 224 b.
9. McClelland D.C. Testing for Competence Rather Than for "Intelligence" // American Psychologist. – 1973. – Vol. 28, No. 1. – P. 1–14.
10. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – Oxford: Oxford Psychologists Press, 1984. – 251 p.
11. Hutmacher W. Key Competencies for Europe. Report of the Symposium. – Strasbourg: Council of Europe, 1997. – 72 p.
12. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – С. 34–42.